

Sayyohlar uchun ajoyib yangilik: Yangi Nukus-Oqtov-Nukus qatnovi!

2021 16 Iyun

Joriy yilning 21-iyunidan boshlab «Uzbekistan Airways» AJ Nukus-Oqtov-Nukus yo'nalishi bo'yicha haftaning dushanba kunlari muntazam qatnovlarni amalga oshiradi.

Nukus-Oqtov yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 1 093 000 so'mdan boshlanadi, Nukus-Oqtov-Nukus bo'yicha esa 1 869 000 so'mdan boshlanadi.

Bundan tashqari, Toshkent va Samarqanddan Oqtovga va Nukus orqali ortga to'g'ridan-to'g'ri tariflar joriy etilgan. Shuningdek, «Uzbekistan Airways» AJ Urganch-Oqtov-Urganch yonalishida ham haftasiga ikki marotaba – dushanba va juma kunlari muntazam qatnovlarni bajarayotganligini alohida e'tirof etish joiz.

Narxlari, O'zbekiston Respublikasi MB kursi bo'yicha 16.06.2021-yil holatiga ko'ra amal qiladi.

«Uzbekistan Airways» AJ Matbuot xizmati.